

**01-10/4-son**  
**25.10.2023-y.**

**TASDIQLAYMAN**  
**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Adliya vazirligi huzuridagi**  
**“O‘zarxiv” agentligi direktori,**  
**Hay’at raisi**



**U.M. Yusupov**

**2023-yil 25-oktabr**

**“O‘zarxiv” agentligi Hay’atining kengaytirilgan yig‘ilishi**  
**4-son BAYONI**

**2023-yil 25-oktabr**

**Toshkent sh.**

**Raislik qiluvchi:**

U. Yusupov

“O‘zarxiv” agentligi direktori, Hay’at raisi;

**Qatnashdilar:**

Sh.Sadikov, D.Kucharova,  
A.Mamanazarov, D.Zakirova

“O‘zarxiv” agentligi Hay’ati a’zolari;

**Taklif qilinganlar:**

U.Abdullayev

I.Latipov

G.Boboyeva

D.Madiyeva

S.Haqnazarov

Adliya vazirligi boshqarma boshlig‘i

Adliya vazirligi boshqarma boshlig‘i  
o‘rinbosari

“UZA” O‘zbekiston Milliy axborot agentligi  
muxbiri

“O‘zbekiston 24” radiokanali jurnalisti

“Mahalla” radiokanali jurnalisti

**KUN TARTIBI:**

I. “O‘zarxiv” agentligining 2023-yil 9 oylik yakunlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Hukumati tomonidan belgilangan vazifalarning bajarilishi to‘g‘risida (**U. Yusupov**).

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” 2023-yil 11-sentyabrdagi Farmoni ijrosi to‘g‘risida (**U. Yusupov, Sh. Tursunbayev**).

III. Adliya vazirligi tomonidan “O‘zarxiv” agentligi va uning hududiy boshqarmalari faoliyatini o‘rganish natijalari haqida (**U.Yusupov, U.Abdullayev**).

IV. “O‘zarxiv” agentligida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va topshiriqlari ijrosini tashkil qilish va nazorat qilish, Agentlik tizimidagi tashkilotlarda ijro intizomi holati, uni mustahkamlash, bu borada rahbarlar mas’uliyatini kuchaytirish to‘g‘risida (**Sh.Sadikov, D.Yusupov**).

V. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda so‘rovlar ijrosi holati to‘g‘risida (**Sh.Sadikov, N.Anarkulova**).

VI. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari arxiv ishi hududiy boshqarmalarida o‘tkazilgan o‘rganish natijalari to‘g‘risida (**Sh.Sadikov, Sh.Xojiboyev**).

## VII. Turli masalalar

### I. “O‘zarxiv” agentligining 2023-yil 9 oylik yakunlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Hukumati tomonidan belgilangan vazifalarning bajarilishi to‘g‘risida

*(U.Yusupov, Sh.Sadikov, U.Abdullayev, I.Latipov, Sh.Xojiboyev, D.Kucharova, A.Mamanazarov, D.Zakirova, U.Yusupov)*

“O‘zarxiv” agentligi direktori U.Yusupovning “O‘zarxiv” agentligining 2023-yil 9 oylik yakunlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Hukumati tomonidan belgilangan vazifalarning bajarilishi to‘g‘risidagi axboroti eshitildi.

O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini rivojlantirishning 2023-yil 9 oylikka mo‘ljallangan rejasi 20 ta ko‘rsatkichlar bo‘yicha bajarilib, shundan 20 ta ko‘rsatkich bo‘yicha oshirib bajarilgan.

Xususan, **218 846** qog‘oz asosidagi hujjatlar (2023-yilning 9 oyligida 170 354 varaq rejalashtirilib, 126%ga oshirib bajarilgan) ta’minlanganligi, **81 189** s.b. hujjatlar (158%) muqovalangan va tikilgan.

Alohida qimmatli **9 280 s.b.** (170%) qog‘oz asosidagi, **80 s.b.** (107%) kino, **2 200 s.b.** (116%) surat, **35 s.b.** (100%) ovozli hujjatlar aniqlangan.

Davlat arxivlari tomonidan **153 199 s.b.** (169%) boshqaruv, **713 s.b.** shaxsiy kelib chiqish, **25 340 s.b.** (220%) shaxsiy tarkib, **16 s.b.** ilmiy-texnika, **40** (100%) kino, **3 351 s.b.** (105%) surat, **352 s.b.** (101%) ovozli hujjatlar, shuningdek, shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari tomonidan **4 583 s.b.** (650%) boshqaruv, **65 242 s.b.** (232%) shaxsiy tarkib hujjatlari qabul qilingan.

Davlat arxivlari tomonidan **500 505 s.b.** (136%) boshqaruv, **16 003 s.b.** (402%) shaxsiy tarkib, **23 s.b.** (128%) shaxsiy kelib chiqish, **3 885 s.b.** (104%) ilmiy-texnik hujjatlar, **1 364 s.b.** (132%) surat hujjatlarining, shuningdek, shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari tomonidan **1 722 s.b.** boshqaruv, **270 491 s.b.** (122%) shaxsiy tarkib hujjatlarining mavjudligi va holati tekshirilgan.

Davlat arxivlari tomonidan tashkilot va korxonalarining 158 324 s.b. boshqaruv (174%), **159 s.b.** ilmiy-texnik, **39 671 s.b.** (216%) shaxsiy tarkib, 66 956 s.b. saqlash muddati vaqtincha bo‘lgan hujjatlari, shuningdek, shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari tomonidan **5 352 s.b.** (208%) boshqaruv, **46 703 s.b.** (190%) shaxsiy tarkib, **64 620 s.b.** saqlash muddati vaqtincha bo‘lgan hujjatlari shartnoma asosida tartibga keltirilgan.

Davlat arxivlarida saqlanayotgan **82 784 s.b. (138%)** boshqaruv, **100 s.b.** shaxsiy kelib chiqish, **1026 s.b. (513%)** shaxsiy tarkib, **4 892 s.b. saqlash muddati vaqtincha bo'lgan** hujjatlarning qimmatligini aniqlash ekspertizasi o'tkazilgan.

Davlat arxivlari tomonidan tashkilot va korxonalarda **854 ta (138%)** yalpi, **433 ta (371%)** mavzuli o'rganishlar o'tkazilganligi hamda arxiv ishi va ish yuritish bo'yicha uslubiy hamda amaliy yordam ko'rsatilgan.

“O‘zarxiv” agentligi va hududiy boshqarmalar tomonidan 2023-yil 9 oyda **233 ta** tashkilot va korxonalarda davlat nazorati tadbirlari o'tkazilgan. Tekshirish natijalariga ko'ra, “O‘zarxiv” agentligi (*22 ta*), Andijon (*6 ta*), Farg‘ona (*1 ta*), Namangan (*2 ta*) viloyatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi (*1 ta*) arxiv ishi hududiy boshqarmasi tomonidan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 215<sup>4</sup>-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni sodir etgan **32 nafar** mas'ul xodimlariga nisbatan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomalar rasmiylashtirib, tegishli sud organlariga yuborilgan, huquqni muhofaza qiluvchi organga **1 ta** material yuborilgan. Tashkilot va korxonalariga ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan **185 ta** taqdimnomalar kiritilgan.

Respublika arxivlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmi **30,852 mlrd. so'mni (230%)**, shundan davlat arxivlarida **23,405 mlrd. so'mni (255%)**, shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlarida **7,447 mlrd so'mni (178%)** tashkil etgan.

Arxiv ishi va ish yuritish markazi tomonidan 2023-yil 9 oyda **552 nafar** tinglovchi malaka oshirgan.

Davlat arxivlari tomonidan (*2023-yil 1-oktabr holatiga*) jami **972,4 ming** saqlov birligidagi **64,7 mln.** kadr raqamlashtirilgan. Tasdiqlangan rejaga muvofiq, 2023-yil boshidan **110,4 ming** saqlov birligidagi **11,2 mln.** Kadr (107%) raqamlashtirilgan.

**“Davlat arxivlarida raqamlashtirilayotgan hujjatlarni yagona saqlovini ta'minlash hamda ulardan foydalanish”** axborot tizimida davlat arxivlari tomonidan (*2023-yil 1-oktabr holatiga*) jami **48 434 ta** fond, **47 625 ta** ro'yxat, **614 556 saqlov birligi** va **259 107 ta** hujjat yaratildi.

2023-yil III choragida davlat arxivlari tomonidan jami **193 ta** fond, **1 901 ta** ro'yxat, **104 412 saqlov birligi**, **72 209 ta** hujjat yaratildi va **65603 ta** hujjatning bibliografiyasi to'ldirilgan.

**Hisobot davrida Buxoro viloyati** Jondor tumani, Jizzax viloyati, Do'stlik, Sharof Rashidov, G'allaorol tumanlari, Farg‘ona viloyati, Navoiy viloyati Konimex, Tomdi, Nurota tumanlari, Zarafshon shahar, Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani, Xorazm viloyati, Xiva shahar, Yangibozor, Xonqa tumanlari, Andijon viloyati, Toshkent shahar markaziy davlat arxivlari xodimlari **“Davlat arxivlarida raqamlashtirilayotgan hujjatlarni yagona saqlovini ta'minlash hamda ulardan foydalanish”** axborot tizimiga ma'lumotlarni kiritishda eng faol bo'lgan.

**Shu bilan birga**, hisobot davrida O‘zbekiston Ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Amudaryo, Kegeyli, Qonliko‘l, Qorao‘zak, To‘rtko‘l, Xo‘jayli, Chimboy tumanlari, Andijon viloyati Marxamat, Oltinko‘l tumanlari, Namangan viloyati, To‘raqo‘rg‘on, Uychi, Chortoq tumanlari, Sirdaryo viloyati Yangiyer shahar, Surxondaryo viloyati, Angor, Denov, Jarqo‘rg‘on, Muzrabot tumanlari, Toshkent viloyati Bekobod, Olmaliq shaharlari, Qibray tumani, Farg‘ona viloyati Bog‘dod, Yozyovon, So‘x tumanlari davlat arxivlari tomonidan “Davlat arxivlarida raqamlashtirilayotgan

hujjatlarni yagona saqlovini ta'minlash hamda ulardan foydalanish" **axborot tizimiga ma'lumotlarni kiritish tashkil etilmagan.**

"O'zarxiv" agentligining hududiy boshqarmalari tomonidan qonunchilikda belgilangan arxiv ishi va ish yuritish holati bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirish funksiyalariga "**panjara**" ortidan qaramoqda.

Xususan, arxiv ishi va ish yuritish holati barcha idoralarda e'tiborsizlik bo'lgan bir paytda hududiy boshqarmalari tomonidan **203 ta** davlat nazorati tekshirishlarida **atigi 10 ta** (*Andijon (6 ta), Farg'ona (1 ta), Namangan (2 ta) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi (1 ta)*) **ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomalar tuzilgan xolos.**

Surxondaryo viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi tomonidan 11 ta davlat nazorati o'tkazilgan va tekshirishlarda qonunbuzilish holatlari aniqlangan bo'lsada, tashkilotlarga taqdimnomalar kiritilmagan va boshqa ta'sir choralar ko'rilmagan.

## II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "**O'zbekiston – 2030**" strategiyasi to'g'risida" 2023-yil 11-sentabrdagi Farmoni ijrosi to'g'risida

*(U.Yusupov, Sh.Sadikov, U.Abdullayev, I.Latipov, Sh.Tursunbayev, Sh.Xojiboyev, D.Kucharova, A.Mamanazarov, D.Zakirova, U.Yusupov)*

"O'zarxiv" agentligi bo'lim boshlig'i Sh.Tursunbayevning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "**O'zbekiston – 2030**" strategiyasi to'g'risida" 2023-yil 11-sentabrdagi Farmoni ijrosi to'g'risidagi axboroti eshitildi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini (2017-2021, 2022-2026-yillar) amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida "**O'zbekiston — 2030**" strategiyasi 2023-yil 11-sentabrda PF-158-son bilan tasdiqlandi.

Unda, 100 ta maqsaddan iborat 2030-yilgacha bo'lgan O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi qabul qilindi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida quyidagi 5 ta asosiy yo'nalishlar belgilandi:

I. Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish;

II. Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash;

III. Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish;

IV. Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish;

V. "Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish va uning maqsadli ko'rsatkichlariga erishish **barcha davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida eng ustuvor vazifa etib belgilandi.** Bu bo'yicha ularning **birinchi rahbarlariga shaxsiy mas'uliyat yuklatildi.**

**Shu bilan birga,** "O'zbekiston — 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish bo'yicha PQ-300-son qarori qabul qilindi. "O'zbekiston — 2030" strategiyasining 100 ta maqsadini hamda har bir

yoʻnalishlarida belgilangan vazifalarning ijrosini taʼminlashning yangi mexanizmlari ishlab chiqildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni va 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va oʻz vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori ijrosi boʻyicha **Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “Oʻzarxiv” agentligining “Oʻzbekiston -2030” strategiyasini amalga oshirish boʻyicha “Oʻzarxiv” agentligining 2023-2024-yillarga moʻljallangan “yoʻl xaritasi” loyihasi** ishlab chiqildi.

Loyihada nazarda tutilgan tadbirlarning muddatlari aniq belgilandi. Hayʼat raisi loyihada belgilangan tadbirlarning ijrosiga masʼul boʻlgan tarkibiy boʻlinma rahbarlaridan nazorat reja matni boʻyicha va unda belgilangan vazifalarning muddatida ijro eta olishligini, shuningdek loyiha boʻyicha taklif va mulohazalar mavjud yoki mavjud emasligini soʻradi.

Loyihada belgilangan tadbirlar uchun masʼul ijrochilar barcha tadbirlarni oʻz vaqtida va toʻliq bajara olishlari hamda taklif va mulohazalar yoʻqligini bildirdilar.

### **III. Adliya vazirligi tomonidan “Oʻzarxiv” agentligi va uning hududiy boshqarmalari faoliyatini oʻrganish natijalari haqida**

*(U.Yusupov, Sh.Sadikov, U.Abdullayev, I.Latipov, Sh.Xojiboyev, D.Kucharova, A.Mamanazarov, D.Zakirova, U.Yusupov)*

**Adliya vazirligi** boshqarma boshligʻi U.Abdullayevning Adliya vazirligi tomonidan “Oʻzarxiv” agentligi va uning hududiy boshqarmalari faoliyatini oʻrganish natijalari haqidagi maʼruzasi eshitildi.

Xususan, **Ish haqqi va ish stajini tasdiqlash haqida arxiv maʼlumotnomasini berish boʻyicha davlat xizmatini koʻrsatishda respublika boʻyicha jami 1 487 ta holatda muddat buzilishi** qayd etilgan.

*Masalan: muddat buzilishi holati Namanganda 385 ta boʻlsa, mazkur koʻrsatkich Jizzaxda 30 tani tashkil etadi.*

Shuningdek, **Nukus shahar shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi, Qoʻngʻirot hamda Xoʻjayli tuman davlat arxivlari** tomonidan mazkur xizmat toʻgʻridan-toʻgʻri koʻrsatilganligi holati aniqlandi.

Xususan, 2022-2023 yil oʻrganish kuniga qadar jami **287 ta holatda toʻgʻridan toʻgʻri xizmat koʻrsatilgan.**

**Oliy va oʻrta maxsus taʼlim muassasasida oʻqiganlikni tasdiqlash haqidagi arxiv maʼlumotnomasini berish boʻyicha davlat xizmatini koʻrsatishda respublika boʻyicha jami 709 ta holatda muddat buzilishi** qayd etilgan.

*Masalan: muddat buzilishi holati Qashqadaryoda 125 ta boʻlsa, ushbu koʻrsatkich Navoiyda 10 tani tashkil etadi.*

**Yaroqsiz holatga kelgan yoki yo‘qotilgan mehnat daftarchasidagi yozuvlarni tasdiqlash bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatishda respublika bo‘yicha jami 826 ta holatda muddat buzilishi qayd etilgan.**

*Masalan: muddat buzilishi holati Andijonda 429 ta bo‘lsa, mazkur raqamlar Qoraqalpog‘iston hamda Sirdaryoning har biriga 7 tani tashkil etadi.*

**Mavzuli so‘rovlarni ijro etish bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatishda respublika bo‘yicha jami 861 ta holatda muddat buzilishi qayd etilgan.**

*Masalan: muddat buzilishi holati xizmatni umumiy tartibda ko‘rsatish bo‘yicha Toshkent viloyatida 22 ta bo‘lsa, Sirdaryo, Navoiy hamda Toshkent shahrining har biriga 1 tani tashkil etadi.*

*Xizmatni tezlashtirilgan tartibda ko‘rsatish bo‘yicha ham Toshkent viloyatida eng ko‘p 286 ta holat mavjud bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich O‘zbekiston Milliy arxivida 1 tani tashkil etadi.*

Bundan tashqari, **Qo‘ng‘irot** hamda **Xo‘jayli tuman davlat arxivlari** tomonidan mazkur xizmat **to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatilgan.**

Xususan, **216** ta holatda qonunchilik normalarini buzgan holda davlat xizmati ko‘rsatilgan.

**Davlat arxivlari o‘quv zallarida arxiv hujjatlaridan foydalanishga ruxsatnoma berish bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatishda respublika bo‘yicha jami 155 ta holatda muddat buzilishi qayd etilgan.**

*Masalan, ushbu ko‘rsatkich O‘zbekiston Milliy arxivida 33 ta bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich Jizzax, Xorazm, Qashqadaryo hamda Buxoroning har biriga 1 tani tashkil etadi.*

Shuningdek, mazkur davlat xizmatini tartibga soluvchi ma‘umriy reglamentda belgilangan **1** ish kunlik muddat o‘tib ketgan bo‘lsada, **205** ta arizalar tizimda **“yangi”** holatida qolib ketgan.

Bundan tashqari, davlat xizmatini ko‘rsatish muddati o‘tib ketgan bo‘lsada, jami **33** ta arizalar tizimda **“jarayonda”** holatida qolib ketgan.

Shuningdek, o‘rganish davomida O‘zbekiston Kinofotofono hujjatlari milliy arxivi va O‘zbekiston Ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi tomonidan ushbu davlat xizmatini **to‘g‘ridan to‘g‘ri fuqarolar tomonidan qog‘oz shaklida tegishli so‘rovnomani to‘ldirish** orqali ko‘rsatish amaliyoti mavjudligi aniqlandi.

Xususan, O‘zbekiston Kinofotofono hujjatlari milliy arxivida 2022-2023 yil o‘rganish kuniga qadar jami **72** ta holatda so‘rovnoma to‘ldirish orqali davlat xizmati ko‘rsatilgan bo‘lsa, mazkur ko‘rsatkich O‘zbekiston Ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivida **35** tani tashkil etadi.

Xuddi shu kabi holatlar, **Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy davlat arxivida** ham mavjud. Jami **25** ta holatda an‘anaviy shaklda (yozma) ruxsatnoma berilganligi aniqlandi.

Shu o‘rinda, **Namangan viloyatida** tuman (shahar) davlat arxivlari hamda shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari tomonidan **“archive.uz”** elektron tizimida fuqarolarning **to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaatiga asosan** xodimlar o‘zlarining loginlari bilan fuqarolarning nomidan so‘rovnomalar yaratib, arxiv ma‘lumotnomalarini shakllantirish holatlari mavjudligi aniqlandi.

Xususan, **1 703** ta holatda tizimda so‘rovnomalar shakllantirib, arxiv ma’lumotnomalari rasmiylashtirib berilgan.

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi Arxiv ishi hududiy boshqarmasi** tomonidan **2022 yilda 20 ta, 2023 yilning o‘rganish kuniga qadar 17 ta** davlat organi va tashkilotida arxiv sohasi bo‘yicha davlat nazorati amalga oshirilgan bo‘lib, **2022-2023 yilning 9 oyi davomida aniqlangan holatlar yuzasidan bironta ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnomalar rasmiylashtirilmagan.**

**Buxoro viloyati Arxiv ishi hududiy boshqarmasi** tomonidan aniqlangan ma‘muriy huquqbuzarlik holatlari yuzasidan tegishli ma‘muriy bayonnomalar rasmiylashtirilmasdan, **tashkilotlarga taqdimnoma kiritish bilan cheklanilgan.**

Shuningdek, 2022 yilda **O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi Buxoro viloyat hududiy boshqarmasida** ham davlat nazorati o‘tkazilgan.

Vaholanki, “O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi to‘g‘risida”gi Qonunda Savdo-sanoat palatasi tadbirkorlik faoliyati subyektlarini birlashtiruvchi **nodavlat notijorat tashkiloti** ekanligi belgilangan.

**Navoiy viloyati Arxiv ishi hududiy boshqarmasi** tomonidan **10 ta** holatda arxiv hujjatlarini idoraviy arxivlarda saqlash muddati o‘tgan bo‘lsada hujjatlarni topshirmaganligi uchun tashkilotlarga **tegishli ta’sir choralari qo‘llanilmagan.**

**Jizzax viloyati Arxiv ishi hududiy boshqarmasi** tomonidan 2023 yilning o‘tgan davri mobaynida o‘rganilgan **21 ta** davlat organi va tashkilotida aniqlangan holatlar bo‘yicha **ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma rasmiylashtirish choralari ko‘rilmagan.**

**Farg‘ona viloyati Arxiv ishi hududiy boshqarmasi** tomonidan **2022 yilda 19 ta, 2023 yil o‘rganish kuniga qadar 17 ta** davlat organi va tashkilotlarida davlat nazorati o‘tkazilgan bo‘lsada, 2022-2023 yilning o‘tgan davri davomida **faqat bitta holatda ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma rasmiylashtirilgan.**

**Toshkent shahar Arxiv ishi hududiy boshqarmasi** tomonidan **2023 yilda 3 ta** holatda qonunbuzilishi holatlari aniqlangan bo‘lsada, ularni bartaraf qilish bo‘yicha **taqdimnoma kiritilmagan.**

Shu bilan birga, tekshirish davomida boshqa bir qator xato va kamchiliklar aniqlanganligi ma’lum qilindi.

**IV. “O‘zarxiv” agentligida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va topshiriqlari ijrosini tashkil qilish va nazorat qilish, Agentlik tizimidagi tashkilotlarda ijro intizomi holati, uni mustahkamlash, bu borada rahbarlar mas’uliyatini kuchaytirish to‘g‘risida**

---

*(U.Yusupov, Sh.Sadikov, U.Abdullayev, I.Latipov, Sh.Xojiboyev, D.Kucharova, A.Mamanazarov, D.Zakirova, U.Yusupov)*

“O‘zarxiv” agentligi direktori o‘rinbosari Sh.Sadikovning “O‘zarxiv” agentligida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va topshiriqlari ijrosini tashkil qilish va nazorat qilish, Agentlik tizimidagi tashkilotlarda ijro intizomi

holati, uni mustahkamlash, bu borada rahbarlar mas'uliyatini kuchaytirish holati to'g'risidagi axboroti eshitildi.

“O‘zarxiv” agentligi direktori o‘rinbosari Sh.Sadikovning 2023 yil 9 oylikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va topshiriqlari ijrosini tashkil qilish va nazorat qilish, Agentlik tizimidagi tashkilotlarda ijro intizomi holati, uni mustahkamlash, bu borada rahbarlar mas'uliyatini kuchaytirish to'g'risidagi axboroti, xususan: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori talablariga muvofiq “Ijro.gov.uz” tizimida nazoratga olingan topshiriqlarning 2023 yil 9 oyligi ijro holati batafsil tahlil qilinganligi;

“Ijro.gov.uz” tizimida nazoratga olinganligi va 2023-yil 9 oyida bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqlar soni jami 75 tani tashkil etganligi, shundan, 74 tasi belgilangan muddatlardan kechiktirilmadan ijrosi ta'minlanganligi; 1 ta topshiriq ijrosi muddati o‘tganligi; (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-apreldagi PF-6218-son Farmoni 3.4.48-bandi: **1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qayd etib o‘tilgan hujjatlarini birlashtirishning imkoni mavjud emasligi** sababli Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “**Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida**”gi Farmoni loyahasida ushbu hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilgan va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritilgan.

Mazkur topshiriq ijro muddatini uzaytirish Vazirlar Mahkamasi Rayosatining 2023 yil 27 iyuldagi 57-son bayoni 6-ilova 12-bandi bilan rozilik berilgan.

“O‘zarxiv” agentligi direktori o‘rinbosarlari va mas'ul bo‘lgan xodimlar bilan “Ijro.gov.uz” tizimidagi bajarilishi belgilangan topshiriqlar ijro holati haftada ikki marotaba (chorshanba va juma kunlar) rahbariyat huzurida dushanba kunlari yig'ilishlarda muhokama qilinib, aniqlangan kamchiliklarni zudlik bilan bartaraf etish bo'yicha topshiriqlar berib borilayotganligi;

2023-yil 9 oyligi davomida Agentlikka kelib tushgan hujjatlar **4467 tani**, yuborilgan hujjatlar **1179 tani** tashkil etganligi, 63 ta asosiy faoliyatga oid, 143 ta shaxsiy tarkibga oid buyruqlar va 15 ta farmoyishlar ishlab chiqilganligi; hisobot davrida Agentlik tomonidan 21 ta, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari (1 ta), O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari (4 ta), O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari (14 ta), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari (6 ta) ijrosi yuzasidan tegishli hujjatlar qabul qilingan.

**Shu bilan birga**, Agentlik direktorining 2020-yil 30-oktabrdagi 211-son buyrug'i 3.3-bandiga asosan barcha davlat arxivlari mf.ijro.uz (arxiv.ijro.uz) va app.ijro.uz tizimiga ulanishlari hamda u orqali idoraviy hujjat almashinuvini tashkil etishlari belgilab qo'yilganiga qaramasdan **Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumani davlat arxivi, Andijon viloyati Ulug'nor, Buloqboshi tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari, Jizzax viloyati Paxtakor, Mirzacho'l, Zafarobod, G'allaorol, Baxmal va Zomin tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari, Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani davlat arxivi, Mirishkor va Shahrisabz (tizimdan faqat ijtimoiy huquqiy so'rovlar va**



*murojaatlar ro'yxatdan o'tkazilgan*) tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari, Namangan viloyati Uychi tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi, **Sirdaryo viloyati** Oqoltin, Boyovut tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivida (*asosan tizimdan faqat ijtimoiy huquqiy so'rovlar va murojaatlar ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lib, boshqa turdagi hujjatlar ro'yxatdan o'tkazilmagan hamda nazoratga olinmagan*), **Surxondaryo viloyati** Qumqo'rg'on tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi, **Farg'ona viloyati** Buvayda, Uchko'prik va Marg'ilon tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlarida tizim imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanmaslik yoki faqat ijtimoiy huquqiy so'rovlar va murojaatlar ro'yxatdan o'tkazish va nazoratga olish hamda ijroga yo'naltirilishi zarur bo'lgan topshiriqlarni ma'lumot uchun qabul qilish bilan cheklanganlik holatlari aniqlandi.

## **V. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda so'rovlar ijrosi holati to'g'risida**

*(U.Yusupov, Sh.Sadikov, U.Abdullayev, I.Latipov, Sh.Xojiboyev, D.Kucharova, A.Mamanazarov, D.Zakirova, U.Yusupov)*

“O‘zarxiv” agentligi direktori o‘rinbosari Sh.Sadikovning jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda so‘rovlar ijrosi holati to‘g‘risidagi axboroti eshitildi.

“O‘zarxiv” agentligi rahbariyati tomonidan 2023-yil 9 oylik davomida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlardagi shahar hamda tumanlarda jismoniy va yuridik shaxslarni sayyor qabuli jadvaliga asosan **13 ta** sayyor va shaxsiy qabullar o‘tkazilib, ularda **122 nafar** fuqarolar murojaatlari ko‘rib chiqildi.

Agentlikka 2023-yil 9 oylik davomida jismoniy va yuridik shaxslardan jami **725 ta** (2022-yil 9 oyligiga nisbatan **91,3%**), jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasi orqali **513 ta**, Adliya vazirligi orqali **46 ta**, Sayyor qabullardan **122 ta**, Agentlikka to‘g‘ridan to‘g‘ri yozma **28 ta**, idoraviy aloqa markazidan (ishonch telefoni) **14 ta**, O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining “Xotin-qizlar muammolari bo‘yicha 1211 ishonch telefoni” (Call-center)dan **2 ta** murojaatlar kelib tushdi. Shundan, **142 tasi** shikoyat turida kelib tushgan.

Agentlik tomonidan tegishliligi bo‘yicha ko‘rib chiqilgan **606 ta** murojaatlardan **33%** qanoatlantirilgan, tegishliligi bo‘yicha tegishli tashkilotlarga yuborilgan murojaatlar soni **31 tani**, ko‘rmasdan qoldirilgan murojaatlar soni **45 tani** tashkil etgan, qolgani ijro holatida.

Agentlik tizimidagi muassasalar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning **883 ta** (2022-yil 9 oyligiga nisbatan **44,6%**) murojaatlar ko‘rib chiqilib, shundan **418 ta (47,3%)** murojaat qanoatlantirilgan, **321 tasiga** tushuntirish berilgan, **72 tasi** tegishliligi bo‘yicha boshqa tashkilotga yuborilgan, **48 tasi** ko‘rmasdan qoldirilgan va **25 ta** murojaat ijrosi bajarilish jarayonida.

2023-yil 9 oylik davomida Respublika arxivlariga **mavzuli** va **ijtimoiy-huquqiy mazmundagi** so‘rovlar jami **447 361 ta** (2022-yil 9 oyligiga nisbatan **117%**) kelib tushgan.

Jumladan, **ijtimoiy-huquqiy mazmundagi** so‘rovlar **381 257 ta** (2022-yil 9 oyligiga nisbatan **121%**) tashkil etib, shundan Davlat xizmatlari

markazlari (DXM) va (YIDXP) orqali **328 497 ta** (210 672 ta, ko'rsatkichi **156%**), pochta va elektron pochta orqali **22 300 ta** (42 013 ta, ko'rsatkichi **53%**) ijtimoiy-huquqiy mazmundagi so'rovlar kelib tushgan bo'lsa, **30 460 nafar** (62 290 ta, ko'rsatkichi **49%**) fuqaro bevosita arxivga murojaat etgan.

Shulardan, arxiv hujjatlari asosida **254 242 tasi (66,6%)** ijobiy hal etilib, **20 660 tasi (5%)** hujjatlarda ma'lumotlar qayd etilmaganligi bo'yicha tushuntirish berilgan bo'lsa, **98 597 tasi (25,9%)** tashkilot hujjatlari arxiv saqloviga kelib tushmaganligi tushuntirilgan va taaluqligi bo'yicha tegishli tashkilotlarga yuborilgan, qolgani ijro holatida.

Shuningdek, **mavzuli so'rovlar 66 104 ta** (2022-yil 9 oyligiga nisbatan **98,2%**) tashkil etib, shundan Davlat xizmatlari markazlari (DXM) va (YIDXP) orqali **55 160 ta**, bevosita arxivga (pochta va elektron pochta orqali) **10 944 nafar** fuqaro murojaat etgan.

Shulardan, arxiv hujjatlari asosida **52 962 tasi (80,1%)** ijobiy hal etilib, **13 142 tasi (19,8%)** bo'yicha esa tegishli tushuntirish berilgan, qolgani ijro holatida.

Agentlik tizimidagi arxiv muassasalarida 2023-yilning 9 oylik davomida yilligida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishda kamchilik hamda huquqbuzarlikka yo'l qo'yganliklari uchun **12 nafar** rahbar (7 nafari) va mas'ul xodimlar (5 nafari) intizomiy javobgarlikka tortilgan.

Shu bilan birga, Davlat xizmatlari markazlari orqali kelib tushayotgan so'rovlarni bajarishda **1157 ta** muddat buzilish holatlari aniqlangan.

**Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi** Amudaryo (4), Ellikqal'a (1), To'rtko'l (17), Qonliko'l (2) tumanlari davlat arxivlari, Andijon viloyati (8), Bo'z (1), Buloqboshi (1), Marxamat (2), Oltinko'l (1), Shahrixon (2), Ulug'nor (4), Xo'jaobod (2) tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi, **Buxoro viloyati** Buxoro shahar (1) Peshku (1) Qorovulbozor (27) shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari, **Jizzax viloyati** Do'stlik (2) tuman davlat arxivi, Arnasoy (6), Forish (2) G'allaorol (17), Mirzacho'l (4), Zafarobod (13), Zarbdor (16), Zomin (1) tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari, Qashqadaryo viloyati Qarshi (1), Koson (13) tumanlari davlat arxivlari, Qarshi shahar (1), Qarshi (8), Yakkabog' (2) tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari, Navoiy viloyati Xatirchi tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi (7), Namangan viloyat (3), Chortoq (64), Uychi (1), Yangiqo'rg'on (18) tumanlari davlat arxivlari, Namangan shahar (21), Uychi (4), Chust (3), Pop (2), To'rtko'l (1), tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari, Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on (2) shahar, Samarqand viloyat (2), Samarqand tuman (1) davlat arxivi, Pastdarg'om (5), Paxtachi (5) tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari, Surxondaryo viloyati Denov (3), Muzrabot (16), Sho'rchi (1), tumanlari davlat arxivlari, Termiz shahar (1), Oltinsoy (1), Qiziriq (2) Termiz (36) tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari, Sirdaryo viloyati Yangiyer shahar (1) davlat arxivi, Oqoltin (1), Yangiyer (2) tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi, Farg'ona viloyati Quva (1), Rishton (10), Yozyovon (86) tuman davlat arxivi, Marg'ilon (9), O'zbekiston (5), Qo'shtepa (2), Marxamat (2) Quvasoy (1), Farg'ona (2) shahar, Farg'ona (5), Uchko'prik (1) tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari, Toshkent viloyati Angren shahar (2), Toshkent viloyat (88) davlat arxivi, Bo'stonlik (1) Yangiyo'l (97), Chinoz (28), Qibray (3), tumanlari shaxsiy

tarkib hujjatlari davlat arxivlari, Toshkent shahar (4) shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi, Xorazm viloyati Xiva (2), Xazorasp (1), Urganch (8), Shovot (1) tuman shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi tomonidan *Ish haqini va ish stajini tasdiqlash to'g'risidagi arxiv ma'lumotnomasini olish bo'yicha jami 722 ta arizalar*; Qoraqalpog'iston Respublikasi Markaziy (1), Chimboy (1), Beruniy (1), Ellikqal'a (1) tuman davlat arxivlari, Mo'ynoq (1) tuman shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi, Andijon viloyati Oltinko'l (3) tuman davlat arxivi, Andijon viloyati (3), Buloqboshi (1), Marxamat (1), Ulug'nor (3) tuman shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari, Buxoro viloyati Kogon shahar (1), Qorovulbozor (2), Peshku (2) tuman davlat arxivlari, Buxoro shahar (1), Jondor (1), Olot (1), Romitan (1) tuman shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi, Jizzax viloyati Do'stlik (3) tumani davlat arxivi, Jizzax shahar (1), Arnasoy (5), Forish (2), G'allaorol (29), Sh. Rashidov (5), Zafarobod (4), Zarbdor (4), Zomin (8) tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi (9), Qashqadaryo viloyat (7), Qarshi (3), Koson (4), G'uzor (1) tumanlari davlat arxivlari, Qarshi shahar (4), Chiroqchi (5), Dehqonobod tumani (1), Kasbi (1), Kitob (2), Mirishkor (1), Qarshi tumani (6), Shahrisabz (1), Yakkabog' (2) shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi, Navoiy viloyati Navbahor (1) tuman shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi, Namangan viloyati (1), Chortoq (7), Uchqo'rg'on (1), Yangiqo'rg'on (1) tumani davlat arxivi, Namangan shahar (3), Pop (4), Uchqo'rg'on (1), Uychi (3) tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi, Samarqand viloyati (6), Narpay (1) tuman davlat arxivi, Bulung'ur (1) tuman shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi, Sirdaryo viloyati (1), Guliston (1) davlat arxivi, Surxondaryo viloyati (1), Muzrabot (2) tuman davlat arxivi, Termiz (4) tuman shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi, Toshkent viloyati Angren shahar davlat arxivi (6), Chirchiq (2), Olmaliq (2) shahar, Chinoz (1), Parkent (1), Yangiyo'l (6), Zangiota (1) tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi, Toshkent shahar markaziy davlat arxivi (8), Farg'ona viloyati Furqat (6), Oltiariq (2), Quva (2), So'x (2), tuman davlat arxivi, Marg'ilon (3), Farg'ona (4) shahar, Qo'shtepa (1), Buvayda (2), (Farg'ona (4) tumanlari, shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi, Xorazm viloyat Urganch shahar (2), Shovot tuman (1) shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari tomonidan **Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasasida o'qiganlikni tasdiqlash haqidagi arxiv ma'lumotnomasini olish bo'yicha jami 221 ta arizalar**;

Andijon viloyati (9), Buloqboshi (27), Marxamat (129), Shahrixon (4), Ulug'nor (1), Xo'jaobod (51) tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari, Buxoro viloyati Vobkent (1), Qorovulbozor (4) tuman davlat arxivi, Olot (1) tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi, Jizzax viloyati Arnasoy (2), G'allaorol (2), Zarbdor (14) tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi, Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar (1), Chiroqchi (6), Qarshi (1), Yakkabog' (1), Kasbi (1) tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi, Navoiy viloyati Xatirchi tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi (12), Namangan viloyati Chortoq (2), tuman davlat arxivi, Namangan shahar (1), Chust (1), Chortoq (1) Uchqo'rg'on (1), Yangiqo'rg'on (2) tumanlari shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari, Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahar (1), Urgut tumani, (1), Paxtachi (2), Bulung'ur (1) tuman shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi, Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on (1), Muzrabot (1) tumani davlat arxivi, Termiz tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi (2), Toshkent viloyati viloyat davlat

arxivi (5), Yangiyo‘l tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi (8), Toshkent shahar shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi (1), Farg‘ona shahar shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi (3), Xorazm viloyati Xonqa (1) tuman shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari tomonidan **Yaroqsiz holatga kelgan yoki yo‘qotilgan mehnat daftarchasidagi yozuvlarni tasdiqlash bo‘yicha jami 301 ta arizalar;**

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi** markaziy (1), Beruniy (2), To‘rtko‘l (2), Chimboy (1), Qonliko‘l (1) tumani davlat arxivi, Andijon viloyati (1), Izboskan (2), Marxamat (1), Oltinko‘l (18), Shahrixon (16) tumani davlat arxivi, Buloqboshi (1), Xo‘jaobod (1) tumani shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi, Buxoro viloyati (7), Buxoro (2), G‘ijduvon (1), Jondor(1), Peshku (3), Qorako‘l (2) tumani davlat arxivi, Jizzax viloyati Do‘stlik (3), Sharof Rashidov (1), G‘allaorol (1) tuman davlat arxivi, G‘allaorol (6), Zarbdor (1), Zafarobod (2), Qashqadaryo viloyati (6), Qarshi (4), Shahrisabz (1), Yakkabog‘ (1) tumanlari davlat arxivlari, Navoiy viloyat davlat arxivi (2), Namangan viloyati (2), Chortoq (1), Yangiqo‘rg‘on (3), Chust (3), Kosonsoy (1), Uchqo‘rg‘on (1), Uychi (2), Yangiqo‘rg‘on (11) tumanlari davlat arxivlari, Samarqand viloyati (17), Bulung‘ur (2), Narpay (1), Pastdarg‘om (5), Samarqand tumani (5), Kattaqo‘rg‘on shahar (6) davlat arxivlari, Urgut (2), Oqdaryo (1) tuman shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi, Surxondaryo viloyati (2), Jarqo‘rg‘on (1), Sho‘rchi (1), Uzun (1) tumani davlat arxivi, Qiziriq (1) tuman shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi, Sirdaryo viloyati Yangiyer shahar (1), Sirdaryo tumani davlat arxivi (2), Toshkent viloyati (7), Chirchiq (27), Bekobod (1), Yangiyo‘l (6) shahar, Qibray (11) davlat arxivi, Chirchiq shahar (1), Bo‘stonlik (4), Chinoz (13), Bo‘ka (1), O‘rtachirchiq (3), Qibray (5), Yangiyo‘l (4), Yuqorichirchiq (9), Zangiota (11) tumanlari davlat arxivlari, Farg‘ona viloyati (6), Marg‘ilon shahar (2) Rishton (1), Furqat (19) davlat arxivi, Uchko‘prik (2) tuman shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi, Xorazm viloyat (1), Xorazm shahar (1), Xonqa (7), Yangibozor (6) tuman davlat arxivi, Shovot (1), Urganch (2), tuman shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari tomonidan **Mavzuli so‘rovlarni ijro etish bo‘yicha (shu jumladan tezlashtirilgan tartibda) jami 313 ta ariza muddati buzilib ijro etilgan.**

## **VI. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari arxiv ishi hududiy boshqarmalarida o‘tkazilgan o‘rganish natijalari to‘g‘risida**

*(U.Yusupov, Sh.Sadikov, U.Abdullayev, I.Latipov, Sh.Xojiboyev, D.Kucharova, A.Mamanazarov, D.Zakirova, U.Yusupov)*

“O‘zarxiv” agentligi bo‘limi boshlig‘i **Sh.Xojiboyevning** Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari arxiv ishi hududiy boshqarmalarida o‘tkazilgan o‘rganish natijalari to‘g‘risidagi axboroti eshitildi.

O‘rganishlar natijasida mazkur arxivlarda ishlar Arxiv hujjatlarini jamlash, davlat hisobiga olish, saqlash va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, joylardagi arxivlarda so‘nggi yillarda arxiv ishini rivojlantirishda muayyan yutuqlariga erishilgan hamda sohani rivojlantirish va avvalgi o‘rganishlarda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilib, tadbirlar tashkil etilgan.

**Shu bilan birga**, o'rganilgan hududlarda arxiv ishi va ish yuritish sohasini rivojlantirishda quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

1) **Qashqadaryo viloyatida:**

**Qarshi, Shahrisabz, G'uzor, Muborak, Koson va Yakkabog' tumanlar davlat arxivlari** tomonidan jamlash manbai ro'yxatini tuzishda Adliya vazirligi tomonidan 2012-yil 29-martdagi 2360 raqami bilan ro'yxatdan o'tkazilgan Arxiv hujjatlari davlat arxivlariga topshirilishi lozim bo'lgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ro'yxatini tuzish tartibi to'g'risidagi Nizomning ayrim talablariga rioya etilmagan.

**Xususan**, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-martdagi PF-5690-son Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Agrosanoat majmui va oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanishi ustidan nazorat qilish inspeksiyasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi etib qayta tashkil etilgan va Vazirlar Mahkamasi tasarrufiga o'tkazilgan bo'lsada, Muborak va Mirishkor tumanlari davlat arxivining jamlash manbalari ro'yxati qayta tuzilmasdan, ro'yxatga O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Agrosanoat majmui va oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanishi ustidan nazorat qilish inspeksiyasi deb **noto'g'ri kiritilgan**.

Muborak tumani davlat arxivining jamlash manbalari ro'yxatiga kiritilgan Agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyushmasi Muborak tumani kengashi jamoat birlashmasi, "UNG MEDLINE" mas'uliyati cheklangan jamiyati ekanligini inobatga olgan holda ushbu tashkilotlarning mulkchilik shakliga aniqlik kiritilmagan. Hujjatlari MAF tarkibiga kiritilishi mumkin bo'lgan **nodavlat tashkilotlar bilan shartnoma (bitim) tuzilmagan**.

**Yakkabog', Qarshi, Koson tuman davlat arxivlari** tomonidan arxiv hujjatlarining qimmatliligini aniqlash ekspertizasini o'tkazishda hujjatlarning qimmatliligini aniqlash ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom (ro'yxat raqami 2347, 2012-yil 29-mart) talablariga rioya etilmagan.

**Xususan**, doimiy saqlanadigan hujjatlar yig'majildlarining arxiv ro'yxatlari, shaxsiy tarkib bo'yicha hujjatlar yig'majildlarining arxiv ro'yxatlari belgilangan tartibda tuzilmagan.

O'rganish jarayonida Shahrisabz, Yakkabog' tumanlari davlat arxivi binosida kuzatuv kameralari ishchi holatda emasligi aniqlandi. Shuningdek, binoda bildirgichlar o'rnatilmagan.

Davlat arxivlarining jamlash manbai bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda **1 792 saqlov birligidagi** idoraviy saqlov muddati tugagan O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlari saqlanib, kelinmoqda.

2) **Surxondaryo viloyatida:**

Surxondaryo viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasining 2023-yil 19-yanvardagi 3-son buyrug'i bilan tasdiqlangan arxiv ishi va ish yuritish holati ustidan davlat nazorati rejasida 17 ta tashkilotlar kiritilgan bo'lib, shundan I yarim yillikda 9 tasida o'rganish o'tkazilgan, o'rganish jarayoniga tegishli barcha hujjatlar sifatli rasmiylashtirilgan, ammo **qonunchilik hujjatlari talablari bajarilmagan holatlar aniqlangan bo'lsada, tashkilotlarning birontasiga taqdimnomalar kiritilmagan va ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirilmagan**.

**Angor, Boysun, Denov, Jarqo'rg'on, Muzrabot, Sariosiyo, Uzun, Sherobod, Sho'rchi tumanlari davlat arxivlari** tomonidan jamlash manbai ro'yxatini tuzishda Arxiv hujjatlari davlat arxivlariga topshirilishi lozim bo'lgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ro'yxatini tuzish tartibi to'g'risidagi Nizomning (*ro'yxat raqami 2360, 2012-yil 11-may*) **ayrim talablariga rioya etilmagan**, jumladan qo'shimcha jamlash manbaiga kiritilgan tashkilotlar jamlash manbaiga kiritish talablariga javob bermaydi, ya'ni arxiv hujjatlari shartnoma bo'yicha vaqtincha yoki depozitar saqlash uchun davlat arxivi saqloviga topshirilmagan bo'lsada (27-band) mazkur tashkilotlar qo'shimcha jamlash manbai ro'yxatiga kiritilgan.

Boshqarma tizimidagi Ekspert-tekshiruv komissiyasi faoliyati o'rganilganda, komissiya tomonidan kelishilgan va tasdiqlangan hujjatlarda **ayrim kamchiliklar aniqlandi**, jumladan, jamlash manbalari ro'yxatlari, doimiy va shaxsiy tarkib hujjatlari arxiv ro'yxatlari kamchiliklar bilan kelishib va tasdiqlab berilgan.

**Boysun, Jarqo'rg'on, Muzrabot, Sho'rchi tumani davlat arxivi tomonidan** arxiv hujjatlarining qimmatligini aniqlash ekspertizasini o'tkazishda Hujjatlarning qimmatligini aniqlash ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomning (*ro'yxat raqami 2347, 2012-yil 29-mart*) talablariga to'liq rioya etilmagan, ya'ni ro'yxatlarni tizimlashtirishda **xatoliklar mavjud**.

Shuningdek, "O'zarxiv" agentligi tomonidan tasdiqlangan arxiv xizmatlariga doir Narxnomaga asosan arxivlar tashkilotlarga taqdim etayotgan kalkulyatsiyalarda ish turlarining noto'g'ri belgilanganligi yoki qaytarilish holatlari mavjud.

Davlat arxivlarining jamlash manbaiga kiritilgan korxonalar va tashkilotlarda **5 124 saqlov birligidagi** idoraviy saqlov muddati tugagan O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlari saqlanib, kelinmoqda.

Ayrim arxivlarda Ekspert komissiyasi va Ekspert tekshiruv komissiyasi funksiyalari chalkashtirib yuborilgan, ya'ni tashkilotlarning arxiv ishi va ish yuritish bo'yicha ichki normativ hujjatlari arxivlarning **Ekspert komissiyalari tomonidan ma'qullangan**.

Kun tartibidagi masalalar bo'yicha berilgan ma'lumotlar va bildirilgan fikr-mulohazalar muhokamasi asosida **Agentlik Hay'ati qaror qiladi**:

1. Kun tartibidagi masalalar bo'yicha berilgan axborotlar ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "O'zarxiv" agentligining "O'zbekiston-2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha "O'zarxiv" agentligining 2023-2024-yillarga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi" ilovaga muvofiq ma'qullansin.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish va uning maqsadli ko'rsatkichlariga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida eng ustuvor vazifa etib belgilanganligi va bu bo'yicha ularning birinchi rahbarlariga shaxsiy mas'uliyat yuklatilganligi **rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin**.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O'zbekiston milliy arxivlari, Arxiv ishi va ish yuritish markazi rahbarlari:

bir hafta muddatda “O‘zbekiston-2030” Strategiyasi hamda “O‘zarxiv” agentligi “Yo‘l xaritasi”ni keng muhokama qilsinlar hamda o‘zlariga amaliy chora-tadbirlarni belgilasinlar;

“Yo‘l xaritasi” ijrosi yuzasidan axborotlarni o‘z vaqtida Agentlikka taqdim etilishida shaxsan rahbar javobgarligi belgilab qo‘yilsin.

4. “O‘zarxiv” agentligi direktori o‘rinbosari (**Sh.Sadikov**) **uch kun muddatda** “Yo‘l xaritasi”ning haftalik, oylik, choraklik ijrosi hisobotlarining berib borilishi va Agentlik tizimidagi mas’ullarni belgilash yuzasidan taklif kiritsin.

5. Qashqadaryo (**S.Babakulov**) va Surxondaryo (**B.Abdushukurov**) viloyatlari arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari o‘rganishda aniqlangan kamchiliklar uchun jiddiy ogohlantirilsinlar.

6. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O‘zbekiston milliy arxivlari, Arxiv ishi va ish yuritish markazi rahbarlari Adliya vazirligi tomonidan o‘tkazilgan o‘rganish davomida aniqlangan xato va kamchiliklar uchun jiddiy ogohlantirilsinlar.

7. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O‘zbekiston milliy arxivlari, Arxiv ishi va ish yuritish markazi rahbarlari:

**bir hafta muddatda** o‘rganishda aniqlangan har bir kamchiliklarni bartaraf qilish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilasinlar;

faoliyatida xato va kamchiliklarga, shu jumladan, Davlat xizmatlari markazlari va my.gov.uz portali orqali kelib tushayotgan so‘rovlarni bajarishda muddat buzilishiga yo‘l qo‘ygan xodimlarga nisbatan ta’sirchan choralar qo‘llashni ko‘rib chiqsinlar;

**bir oy muddatda** amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha aniqlangan har bir kamchilik bo‘yicha Agentlikka axborot kiritsinlar.

8. “O‘zarxiv” agentligi “O‘zarxiv” agentligi bosh buxgalteri va Inson resurslari bo‘yicha bosh mutaxassisi (**S.Yunusxodjayeva**) Agentlikda ijro intizomiga rioya etilmaganligi va kamchilikni bartaraf etish bo‘yicha zaruriy chora-tadbirlar ko‘rmaganligi uchun “O‘zarxiv” agentligi markaziy apparati bo‘limlari (bo‘linmalari) boshliqlari va xodimlarining faoliyati samaradorligini baholash tartibini va ularning choraklik faoliyati samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishlarini baholashning asosiy mezonlarini KPI ko‘rsatkichlari bo‘yicha rag‘batlantirilishida Agentlik bo‘limi boshlig‘i A.Turapov, bosh mutaxassislar J.Ummatov, D.Yusupovlarga nisbatan 20% kam miqdorda hisob kitoblar amalga oshirsinlar.

9. O‘zbekiston Ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi direktori v.b. G.Musayev “Davlat arxivlarida raqamlashtirilayotgan hujjatlarni yagona saqlovini ta’minlash hamda ulardan foydalanish” axborot tizimiga ma’lumotlarni kiritish tashkil etilmaganligi uchun jiddiy ogohlantirilsin.

10. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari hamda O‘zbekiston Ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi direktori v.b. (**G.Musayev**) **bir hafta muddat:**

davlat arxivlari tomonidan “Davlat arxivlarida raqamlashtirilayotgan hujjatlarni yagona saqlovini ta’minlash hamda ulardan foydalanish” axborot

tizimiga ma'lumotlarni kiritilishini jadallashtirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ko'rsinlar;

hisobot davrida "Davlat arxivlarida raqamlashtirilayotgan hujjatlarni yagona saqlovini ta'minlash hamda ulardan foydalanish" axborot tizimiga ma'lumotlarni kiritish tashkil etmagan davlat arxivlari rahbarlariga ta'sirchan choralar qo'llashni ko'rib chiqsinlar.

**11.** "O'zarxiv" agentligi bosh buxgalteri va bosh mutaxassisi (**A.Ziyatdinov**) bir hafta muddatda "Davlat arxivlarida raqamlashtirilayotgan hujjatlarni yagona saqlovini ta'minlash hamda ulardan foydalanish" axborot tizimiga ma'lumotlarni kiritishda eng faol bo'lgan 20 nafar xodimlarni rag'batlantirish bo'yicha Agentlik rahbariyatiga taklif kiritsinlar.

**12.** Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari tomonidan arxiv ishi va ish yuritish holati ustidan tashkilotlarda davlat nazorati tadbirlarini o'tkazishda sustkashlikka yo'l qo'yilganliklari kamchilik sifatida ko'rsatib o'tilsin.

**13.** Tashkilot va korxonalarda o'tkaziladigan arxiv ishi va ish yuritish holati ustidan davlat nazorati tadbirlarini o'rnatilgan tartibda, shaffof va adolatli o'tkazilishi, natijadorligi uchun Arxiv ishi hududiy boshqarmalar boshliqlari shaxsan javobgar ekanliklari bo'yicha ogohlantirilsinlar.

**14.** "O'zarxiv" agentligi direktori o'rinbosari (**Sh.Sadikov**) va bo'lim boshlig'i (**Sh.Xojiboyev**) tashkilot va korxonalarda davlat nazoratini amalga oshirishda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-martdagi 174-son qarori bilan tasdiqlangan Arxiv ishi va ish yuritish holati bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizom talablariga qat'iy rioya etilishini nazoratga olsinlar.

**15.** Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari tashkilot va korxonalarda davlat nazoratini amalga oshirishda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-martdagi 174-son qarori bilan tasdiqlangan Arxiv ishi va ish yuritish holati bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizom talablariga qat'iy rioya etsinlar.

**16.** "O'zarxiv" agentligi direktori o'rinbosari (**Sh.Sadikov**), bosh mutaxassisi (**L.Mirzayev**):

**bir oy muddatda** Milliy arxivlar (*O'zbekiston Milliy arxivi, O'zbekiston Ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi, O'zbekiston Kinofotofono hujjatlari milliy arxivi*) nizomlarida belgilangan vazifa va funksiyalarni bir-biriga o'xshashligi hamda o'ziga xos bo'lmaganligi nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqib, ularga tegishli o'zgartirishlar kiritish;

**bir oy muddatda** Arxivlar mutaxassislarining korxonalar, muassasalar va tashkilotlar hujjatlarini tartibga keltirish huquqini beruvchi kompetentlik guvohnomasini berishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatni ma'muriy reglament shaklida qabul qilish maqsadida hujjat loyihasini ishlab chiqish choralari ko'rsinlar;

**2024 yil 10 martgacha** Arxiv ishi hududiy boshqarmalar bilan birgalikda shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlarini tugatish bo'yicha o'rganish va tahlillar o'tkazgan holda asosli takliflar kiritsinlar.



17. O‘zbekiston milliy arxivlari direktorlari o‘quv zaliga hamda binoni qo‘riqlash uchun mas’ul bo‘lgan shaxslar o‘rtasida axborot texnologiyalardan foydalangan holda tashrif buyuruvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tezkor almashish imkoniyatini yaratsinlar.

18. Qoraqalpog‘iston Respublikasi (**M.Qaipnazarov**), Andijon (**N.Zuhriddinov**), Jizzax (**S.Avliyaxonov**), Qashqadaryo (Babakulov), Namangan (**N.Ahmadaliyev**), Sirdaryo (**Sh.Normatov**), Surxondaryo (**B.Abdushukurov**), Farg‘ona (**D.Mallayev**) viloyatlari arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlariga tizimdagi arxivlari tomonidan [arxiv.ijro.uz](http://arxiv.ijro.uz) tizim imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanmaslik kamchilik sifatida ko‘rsatib o‘tilsin.

19. “O‘zarxiv” agentligi direktori o‘rinbosari (Sh.Sadikov) hamda Nazorat va ijro intizomi sektori boshlig‘i (D.Yusupov):

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori bilan belgilangan talablar asosida topshiriqlarning o‘z vaqtida va to‘laqonli bajarilishi yuzasidan ta’sirchan choralar ko‘rsinlar;

topshiriqlar ijrosini amalda nazorat qilinishini shaxsan tashkil etsinlar, bunda markaziy apparat, hududiy boshqarmalar va O‘zbekiston milliy arxivlarida ishlarning real holatini tanqidiy o‘rganishga e’tibor qaratsinlar;

topshiriqlarni bajarish bo‘yicha nazorat va hisobdorlikni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori bilan belgilangan tartibga qat’iy amal qilgan holda tashkil etsinlar.

20. Nazorat va ijro intizomi sektori boshlig‘i (**D.Yusupov**):

“O‘zarxiv” agentligi tizim tashkilotlarida ijro intizomini ta’minlash va ish yuritishni tashkil etishda metodik ko‘maklashish amaliyotini davom ettirsin;

O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari bilan ishlashda kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan rahbarlarga intizomiy jazo choralari qo‘llash to‘g‘risida takliflarni “O‘zarxiv” agentligi direktoriga kiritib borsin.

21. “O‘zarxiv” agentligi direktori o‘rinbosari (Sh.Sadikov), barcha bo‘lim boshliqlari va mas’ul xodimlarga o‘zlarining xulq-atvori, yurish-turishi, madaniyati bilan qo‘l ostidagilarga shaxsiy o‘rnak bo‘lishlari, mas’uliyat va javobgarlikni, har bir noqonuniy xatti-harakat uchun jazo muqarrarligini chuqur his etgan holda faoliyatini tashkil etishi lozimligi ko‘rsatib o‘tilsin.

22. “O‘zarxiv” agentligi bo‘limi boshlig‘i (**A.Turapov**) bir hafta muddatda [my.archive.uz](http://my.archive.uz) axborot tizimidagi [DXM](http://DXM) va [my.gov.uz](http://my.gov.uz) orqali kelib tushayotgan so‘rovlar (arizalar) bilan bog‘liq texnik nosozliklarni batamom bartaraf etsin va doimiy ravishda texnik nosozliklar yuzaga kelishini oldini olish chorasini ko‘rib borsin.

23. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari hamda O‘zbekiston milliy arxivlari hamda Arxiv ishi va ish yuritish markazi direktorlari:

hay’at ma’ruzasida hamda yig‘ilish bayonida ko‘rsatib o‘tilgan xato va kamchiliklarni o‘zlarining direksiya (ishlab chiqarish) yig‘ilishlarida tanqidiy muhokama qilib, ularni bartaraf etishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni ko‘rsinlar, amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida yakuniy (bandma-band bajarilishi

bo'yicha) umumlashtirilgan ma'lumotni tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda **joriy yilning 15-noyabr kuniga qadar** (*ushbu bayonnomada boshqacha muddat nazarda tutilmagan taqdirda*) Agentlikka taqdim etsinlar;

murojaatlarda qayd qilingan vakolat doirasidagi har bir masalani o'z vaqtida xolis va qonuniy ko'rib chiqilishini qat'iy nazoratga olsin;

vakolat doirasida ko'rib chiqish mumkin bo'lgan shikoyat turidagi murojaatlarni taalluqliligi vaji bilan shikoyat qilinayotgan tashkilot, uning yuqori organiga yoki boshqa nazorat qiluvchi organga yuborish yoki sudga murojaat qilish lozimligi to'g'risida tushuntirish berish amaliyotini to'xtatsin.

jismoniy va yuridik shaxslarning har bir murojaatini o'z vaqtida, qonunchilik talablariga qat'iy amal qilgan holda ko'rib chiqilishi yuzasidan yanada talabchanlikni kuchaytirsinlar;

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarining, shuningdek takroriy murojaatlarning ko'payishi sabablarini o'rganish hamda kelgusida ularni kamaytirish, murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlarining asossiz buzilishiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rsinlar;

joylardagi tizimli muammolarni aniqlab, ularni hal etish choralarini ko'rsinlar, murojaatlarni, ayniqsa takroriylikning har birini, o'z vaqtida sifatli ko'rib chiqish yuzasidan nazorat ishlarini kuchaytirsinlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishda mas'uliyatsizlik va yuzakichilikka yo'l qo'ygan mas'ul shaxslarga nisbatan keskin choralar ko'rsinlar;

rahbarlar tomonidan joylarda jismoniy va yuridik shaxslarning (vakillari) bilan tasdiqlangan jadval asosida sayyor qabullar o'tkazish amaliyotini davom ettirsinlar, qabullarda ko'tarilgan masalalar o'z vaqtida to'liq va sifatli ko'rib chiqilishini ta'minlasinlar, muammolarni imkon qadar joyida hal etish choralarini ko'rsinlar;

direksiya yig'ilishlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bo'yicha ishlarning ahvolini muntazam muhokama etib borish va tegishli tarkibiy tuzilmalarda monitoringlar o'tkazsinlar, qonunda belgilangan talablarni buzgan mas'ul xodimlarga nisbatan keskin choralar ko'rib borsinlar;

murojaatlar bo'yicha ish yuritishni yanada takomillashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali joriy etish, murojaatlar bilan ishlash bo'yicha mas'ul xodimlarning malakasini oshirish choralarini ko'rsinlar;

tizim tashkilotlariga nisbatan murojaatlar bilan ishlash bo'yicha talabchanlikni oshirish, ularga doimiy amaliy yordamlar ko'rsatish va tavsiyalar berib borish choralarini ko'rsinlar.

**24.** Ushbu yig'ilishi qarorlari ijrosi yuzasidan umumiy nazorat Agentlik direktori o'rinbosari (Sh. Sadikov) zimmasiga yuklatilsin.

Bayonnomaga tuzuvchi:

Sh.Xojiboyev

“O‘zarxiv” agentligi Hay’atining 2023-yil  
25-oktabrdagi kengaytirilgan yig‘ilishi  
4-son bayonnomasiga ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligining “O‘zbekiston -2030” strategiyasini  
amalga oshirish bo‘yicha “O‘zarxiv” agentligining 2023-2024-yillarga mo‘ljallangan  
“YO‘L XARITASI”**

T/r	Amaliy chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
<b>I. HAR BIR INSONGA O‘Z SALOHİYATINI RO‘YOBGA CHIQARISH UCHUN MUNOSIB SHAROITLARNI YARATISH</b>				
<b>1.1. Ta’lim tizimi islohotlari</b>				
<i>11-maqсад: Yosh tadqiqotchilarning ulushini oshirish, ularning ilmiy izlanishlarini qo‘llab-quvvatlash</i>				
1.	Arxiv ishi sohasida ilmiy tadqiqot olib borayotgan yosh tadqiqotchilarni aniqlash, davlat arxivlarida ularga ilmiy tadqiqot ishlarini olib borilishida “Ustoz shogird” an’alarini qo‘llash	1. Arxiv ishi sohasida ilmiy tadqiqot olib borayotgan yosh tadqiqotchilarni ro‘yxatini shakllantirish. 2. Arxiv ishi sohasi mutaxassis va kadrlarini tayyorlash bo‘yicha qabul kvotalariga har yili ehtiyojdan kelib chiqib, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taklif kiritish. 3. Ilmiy tadqiqotchilar hamda arxiv ishi sohasidagi magistratura va doktorantura yo‘nalishidagi ilmiy tadqiqotchilarga “Ustoz shogird” tamoyili asosida tajribali arxivchilarni biriktirish.	2023-yil IV chorak, 2024-yil davomida	Sh.Sadikov, Sh.Tursunbayev, A.Fayzullayev, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O‘zbekiston milliy arxivlari va Arxiv ishi va ish yuritish markazi direktorlari
2.	Yosh tadqiqotchilarga davlat arxivlari o‘quv zallarida tadqiqot mavzulariga oid arxiv hujjatlaridan foydalanishda zarur sharoitlar yaratish.	1. Davlat arxivlari o‘quv zallarini moddiy-texnika bazasi bo‘yicha xatlovdan o‘tkazish. 2. Davlat arxivlari o‘quv zallarini zarur uskunalar bilan ta’minlash. 3. O‘zbekiston milliy arxivlarining o‘quv zallarida foydalanish joylari sonini oshirish.	2024-yil yanvar 2024-yil iyul 2024-yil sentabr	Sh.Sadikov, Sh.Tursunbayev, A.Fayzullayev, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O‘zbekiston milliy arxivlari va Arxiv ishi va ish yuritish markazi direktorlari
<b>1.2. Aholi salomatligini ta’minlash bo‘yicha islohotlar</b>				
<i>19-maqсад: Sog‘lom va faol keksalikni ta’minlash</i>				

T/r	Amaliy chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
3.	Agentlik tizimidagi davlat arxivlarida mehnat qilayotgan keksa yoshdagi arxivchilarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.	<ol style="list-style-type: none"> <li>Har bir davlat arxivlarida mehnat qilayotgan 55 yoshdan katta bo'lgan arxivchilar sonini aniqlash va "Adliya faxriylari" reyestriga kiritish.</li> <li>Keksa avlod vakillarini ma'naviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha tadbirlarni tashkil etish.</li> <li>Keksa avlod vakillarini sog'lomlashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish.</li> </ol>	<p>2024-yil mart oyida</p> <p>2024-yil may-avgust oylarida</p>	<p>Sh.Tursunbayev, D.Zakirova, S.Yunusxodjayeva, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari</p>
<b>21-maqсад: Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish</b>				
4.	Sog'liqni saqlash tizimida "Idoraviy elektron arxiv" tizimini to'liq joriy etilishi bo'yicha tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish	<ol style="list-style-type: none"> <li>Sog'liqni saqlash vazirligiga "Idoraviy elektron arxiv" tizimini to'liq joriy etish bo'yicha taklif tayyorlash.</li> <li>Loyihani sog'liqni saqlash tizimida tajriba-sinovdan o'tkazish.</li> <li>"Idoraviy elektron arxiv" tizimini sog'liqni saqlash tizimida hududlar kesimida ishga tushirish.</li> </ol>	<p>2024-yil I chorak</p> <p>2024-yil III chorak</p> <p>2024-yil IV chorak</p>	<p>A.Turapov, A.Ziyatdinov, O'zbekiston Ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi direktori</p>
<b>1.3. Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha islohotlar</b>				
<b>25-maqсад. Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta'minlash</b>				
5.	Sohada xotin-qizlarni ijtimoiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, ayollar va erkaklar teng huquqliligi bo'yicha gender siyosatini yuritish.	<ol style="list-style-type: none"> <li>Tizimda mehnat qilayotgan xotin-qizlarning ijtimoiy holatini o'rganish va tahlil qilib borish.</li> <li>Xotin-qizlar boshlang'ich tashkilotlari faoliyatini yanada kuchaytirish borasida "O'zbek ayoli – o'tmish, nafosat, kelajak ramzi" III Respublika fotoko'rgazmasini tashkil etish.</li> <li>Jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'rvonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash. Bunda "Arxiv malikalari", "Adliya ayoli" ko'rik tanlovini tashkil etish va ishtirok etish.</li> <li>Gender tenglikni ta'minlash yuzasidan xodimlar o'rtasida sport musobaqalarini tashkil etish.</li> </ol>	<p>2023-yil dekabr oyida</p> <p>2024-yil mart oyida</p> <p>mart-aprel, oktabr oylarida</p> <p>iyun-avgust oylarida</p>	<p>Sh.Tursunbayev, S.Yunusxodjayeva, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari</p>
<b>26-maqсад. Nuroniy larni har tomonlama qo'llab-quvvatlash.</b>				
6.	Har yili 100 nafar nuroniylar uchun respublika bo'ylab diqqatga sazovor joylar, xususan tarixiy shaharlar, qadimiy obidalar, ziyoratgohlar va yurtimizning	<ol style="list-style-type: none"> <li>Ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan ish faoliyatini yuritayotgan hamda nafaqada bo'lgan keksa arxivchilarni ichki turizmni tashkil etish yuzasidan chora-tadbirlarni tashkil etish.</li> <li>Hududiy boshqarmalar tomonidan har yili 10 nafargacha bo'lgan nuroniylarni ichki turizm (hududlarda) sayohatini tashkil etish.</li> </ol>	<p>2024-yil II chorak</p>	<p>Sh.Tursunbayev, D.Zakirova, A.Fayzullayev, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari,</p>

T/r	Amaliy chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	so'lim go'shalariga sayohatlar tashkil etish.	3. Agentlik Faxriylar kengashi tomonidan 20 nafar faxriylarni Respublikaning tarixiy shaharlari – Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon madaniy meros obyektlariga sayohatini tashkil etish.	2024-yil iyul-sentabr oylarida	O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari
<b>1.4. Yoshlarga oid davlat siyosati va sport yo'nalishlaridagi islohotlar</b>				
<i>31-maqсад. Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning ilmiy faoliyatini rag'batlantirish</i>				
7.	Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.	1. Tizimda an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Zakovat", "Adliya zakovati" intellektual o'yinlarini tashkil etish. 2. Ilmiy va innovatsion faoliyat, intellektual o'yinlar hamda chet tillarini o'rganishga jalb etish orqali har yili "Yosh arxivchilar forumi"ni tashkil etish.	2024-yil fevral, avgust 2024-yil iyun	A.Aliyev, D.Yusupov, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari
8.	Arxiv ishi sohasida yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularni ilm-fanga keng jalb etish, o'rta maxsus ma'lumotga ega yoshlarni oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan sirtqi ta'lim yo'nalishlarida tahsil olishlarini tashkil etish.	1. O'qish istagini bildirgan xodimlar va yoshlar ro'yxatini shakllantirish. 2. Ro'yxat asosida yoshlarni saralash. 3. Direktorga tavsiyanoma kiritish.	2024-yil iyun-avgust oylarida	S.Yunusxodjayeva, D.Yusupov
9.	"Arxiv malikalari" ko'rik tanlovini tashkil etish.	1. "Arxiv malikalari" ko'rik tanlovining dasturini ishlab-chiqish. 2. Tanlovning hududiy bosqichlarini o'tkazish. 3. Tanlovning respublikada bosqichini o'tkazish.	2024-yil mart-aprel oylarida	A.Aliyev, S.Yunusxodjayeva, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari
<i>34-maqсад. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanadigan yoshlar qamrovini kengaytirish</i>				
10.	"Agentlik direktorining kubogi" futbol chempionatini tashkil etish.	1. "Agentlik direktorining kubogi" futbol chempionatini chora-tadbirlarini ishlab-chiqish. 2. Chempionatni hududlarda saralash bosqichlarini o'tkazish. 3. Chempionatni respublikada yakuniy bosqichlarini o'tkazish.	2024-yil fevral-avgust oylarida	Sh.Sadikov, Sh.Tursunbayev, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari
11.	"Agentlik shohsupasi" shaxmat turnirini tashkil etish.	1. "Agentlik shohsupasi" shaxmat turnirini chora-tadbirlarini belgilash. 2. Turnirni hududlarda saralash bosqichlarini o'tkazish. 3. Turnirni respublikada yakuniy bosqichlarini o'tkazish.	2024-yil may-avgust oylarida	Sh.Sadikov, Sh.Tursunbayev, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari,

T/r	Amaliy chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
				O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari
<b>1.5. Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha islohotlar</b>				
<i>38-maqсад: Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash</i>				
12.	Arxiv ishi sohasida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish.	1. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning samaradorligini oshirish "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada barqarorlashtirish yuzasidan Agentlik tizimida amalga oshirilayotgan ishlarni kuchaytirish bo'yicha tadbirlar tashkil etish.	2023-yil dekabr 2024-yil davomida	Sh.Tursunbayev, F.Saidqosimova, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari
<i>42-maqсад. Madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va ommalashtirish bilan bog'liq faoliyatni yanada takomillashtirish</i>				
13.	Madaniy meros sifatida ro'yxatga olingan arxiv hujjatlarini targ'ibotini tashkil etish.	1. O'zbekiston Milliy arxivi saqlovidagi Qo'qon xonligiga oid hujjatlar namunasini YUNESKOning xalqaro ro'yxatlariga kiritishga tayyorlash. 2. "Jahon xotirasi" loyihasiga kiritilgan arxiv hujjatlarining ko'rgazmalarini tashkil etish.	2023-yil noyabr-dekabr oylarida 2024-yil oktabr	A.Fayzullayev, F.Saidqosimova, O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari
<b>II. BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI FAROVONLIGINI TA'MINLASH</b>				
<i>51-maqсад: "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarini keskin oshirish</i>				
14.	Agentlik tizimidagi arxiv muassasalari tomonidan o'z tasarrufidagi binolariga quyosh panellarini o'rnatish.	1. Binolarga sarflanadigan zarur elektr energiya miqdorini aniqlagan holda quyosh panellarini o'rnatish yuzasidan taklif tayyorlash. 2. Quyosh panellarini o'rnatish uchun moliyaviy ta'minotini belgilash. 3. Binolarga quyosh panellarini o'rnatish hamda tegishli ma'lumotlarini "Yashil energiya" axborot tizimiga joylashtirish uchun belgilangan shaklda Agentlikka taqdim etish. 4. O'rnatilgan quyosh panellarining hisoblagich ko'rsatkichlari haqidagi ma'lumotlarini belgilangan shaklda Agentlikka o'z vaqtida va sifatli taqdim etib borish.	Reja asosida  O'rnatish va ishga tushirilishi vaqtida  Har oyning 15-sanasida	Sh.Tursunbayev, A.Fayzullayev, F.Suyunov, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari
15.	Tabiiy resurslarni tejash bilan bog'liq kompleks yondashuvni joriy qilish.	1. Milliy arxivlar, Boshqarma va uning tasarrufidagi binolarda xona chiroqlaridan kunning birinchi yarmida qat'iy foydalanmaslik; 2. Binolardagi konditsioner qurilmalarini yoz oylarida soat 11-00 gacha foydalanmaslik; 3. Binolardagi lift qurilmasidan foydalanishni cheklash;	Doimiy xonaga qarab Yoz oylarida	F.Suyunov, A.Fayzullayev, H.Salimov,

T/r	Amaliy chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		<p>4. Tizim tashkilotlarini yagona binoga joylashtirish va imkoniyatdan kelib chiqib "Open space" tamoyilini joriy etish;</p> <p>5. Binolardagi suv isitish qurilmalaridan (ariston) butkul voz kechib, muqobil quyosh energiyasidan foydalangan holda suv isitish qurilmalarini o'rnatish;</p> <p>6. Binolarga o'rnatilgan barcha elektr chiroqlarini energiya tejoyvchi elektr chiroqlariga to'liq almashtirish;</p> <p>7. Boshqarma tasarrufidagi barcha transformator qurilmalarini elektr ta'minoti korxonalarini tasarrufiga o'tkazish;</p> <p>8. Xizmat ko'rsatuvchi xodimlar tomonidan elektr energiyasi, tabiiy gaz va ichimlik suvidan foydalanishda tejankorlik asosida foydalanish zarurligini muntazam tushuntirish ishlarini olib borish;</p> <p>9. Tabiiy resurslarni tejashda yuqori samaradorlikka erishgan tuman (shahar) arxiv xodimlarini rag'batlantirish.</p>	<p>Zaruratga ko'ra Imkoniyatga ko'ra Doimiy</p> <p>Doimiy qat'iy ravishda Belgilangan tartibda Doimiy ravishda Har chorak yakunida</p>	<p>Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari</p>
16.	Xizmat avtotransport vositalarini elektromobillarga to'liq almashtirish.	<p>1. Xizmat avtotransport vositalarini ishlab chiqarilgan yili va sarflayotgan yoqilg'i miqdori bo'yicha ma'lumot tayyorlash;</p> <p>2. Elektromobillar xaridi uchun moliyaviy ta'minotini belgilash;</p> <p>3. Xizmat avtotransport vositalarini bosqichma-bosqich elektromobillarga to'liq almashtirish choralari ko'rish.</p>	<p>2023-yil dekabr oyida Har yillik Reja asosida</p>	<p>F.Suyunov, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari</p>
<b>56-maqсад:</b> Monopol sohalarni bozor tamoyillariga izchil o'tkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish, tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoitlar yaratish				
17.	Tadbirkorlik subyektlariga nodavlat va xususiy arxivlarni tashkil etish uchun qulay sharoit yaratish.	<p>1. "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar tayyorlash.</p> <p>2. Mazkur yo'nalishda qonun loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>3. Qonun loyihasida quyidagilarni nazarda tutash:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- nodavlat arxivlarni davlat va nodavlat arxivlari reyestriga kiritish;</li> <li>- hujjatlarni elektron arxivlash (saqlash) xizmatlarini ko'rsatuvchi nodavlat arxivlarning ma'lumotlar uzatish tarmoqlari xizmatlarini ko'rsatish uchun litsenziya olish talabi xabardor qilish tartibini joriy etish orqali bekor qilish.</li> </ul>	<p>2023-yil noyabr-dekabr oylarida</p>	<p>Sh.Sadikov, L.Mirzayev, Sh.Raximov</p>
<b>57-maqсад.</b> Raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatni mintaqaviy "IT-NUB"ga aylantirish.				
18.	Arxiv ishi sohasida raqamli texnologiyalarni keng qo'llash	<p>1. "Davlat nazorati" axborot tizimini ishlab chiqish va ishga tushirish.</p> <p>2. "Arxiv ishi" yagona axborot tizimi mobil ilovasi loyihasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.</p>	<p>2023-yil dekabr 2024-yil</p>	<p>A.Turapov, A.Ziyatdinov, N.Anarkulova,</p>

T/r	Amaliy chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	orqali arxiv xizmatlari ko'rsatishni samarali tashkil etish.	3. "O'zbekiston arxivlari" portalini ishlab chiqish va ishga tushirish.	fevral 2023-yil dekabr	Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari
19.	Vazirlik va idoralar, korxonalar va tashkilotlarda saqlanayotgan idoraviy arxiv hujjatlarini davlat arxivlariga elektron shaklda qabul qilish va tezkor ishlov berish imkoniyati yaratish.	1. "Arxiv.gov.uz" idoraviy elektron arxiv axborot tizimini ishlab chiqish va sinov tariqasida joriy etish. 2. Shakllangan idoraviy elektron arxiv hujjatlarini himoyalangan tarzda tizim orqali almashinuvini amalga oshirish. 3. Davlat organlari va idoralari, tashkilotlarni idoraviy elektron arxiv axborot tizimiga ulash.	2023-yil oktabr-dekabr 2024-yil davomida	A.Turapov, A.Ziyatdinov, J.Ummatov, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari
<b>III. SUV RESURSLARINI TEJASH VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH</b>				
<b>3.1. Suv resurslarini tejash bo'yicha islohotlar</b>				
<i>62-maqсад: Respublikada suvdan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirish</i>				
20.	Milliy arxivlar, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) arxivlari binolarida artezian quduqlarini va qo'shimcha ravishda suvni tejovchi "Water-Smart" uskunalarni o'rnatish orqali suv resurslarini tejash.	1. Milliy arxivlar, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) arxivlari binolarida artezian quduqlari va iste'mol qilinadigan suv miqdori holatini o'rganish; 2. Binolarda artezian quduqlarini va qo'shimcha ravishda suvni tejovchi "Water-Smart" uskunalarni o'rnatish orqali suv resurslarini tejash.	Doimiy ravishda	F.Suyunov, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari
<i>67-maqсад: Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasini kengaytirish</i>				
21.	Yashil hududlar yaratish. Arxiv binolari, tegishli yer maydonlari va unga tutash hududlarda ko'klamzorlashtirish hamda obodonlashtirish ishlarini olib borish.	1. "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida arxiv binolariga tutash hududlarda yashil belbog' hamda binolar ichida yashil hududlar tashkil qilish. 2. "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ekilgan ko'chatlar soni va turi bo'yicha Tabiat resurslari vazirligining tegishli hududiy bo'linmalariga hamda Agentlikka belgilangan shaklda ma'lumot taqdim etib borish. 3. Chiqindilarni saqlash – chiqindilar zararsizlantirish, qayta ishlash yoki utilitatsiya qilish maqsadida olib ketilguniga qadar ularni maxsus jihozlangan to'plagichlar (qutilar)da saqlash.	Doimiy ravishda  Har chorakda  Doimiy ravishda	Sh.Tursunbayev, A.Fayzullayev, F.Suyunov, H.Salimov, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari
<b>IV. QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASH, XALQ XIZMATIDAGI DAVLAT BOSHQARUVINI TASHKIL ETISH</b>				
<b>4.1. Xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha islohotlar</b>				
<i>77-maqсад: Davlat xizmatlarini raqamlashtirishning ko'lamini kengaytirish orqali aholi uchun "Servis davlat" tizimini joriy qilish, fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarda byurokratik tartibotlarga barham berish</i>				



T/r	Amaliy chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
22.	Arxiv sohasida elektron davlat xizmatlari salmog'ini oshirish va barcha davlat xizmatlarini to'liq elektron shaklda taqdim etish.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Davlat xizmatlari reyestriga kiritilgan xizmatlarni takomillashtirib borish.</li> <li>2. Davlat xizmatlaridan foydalanish holati yuzasidan xizmat ko'rsatishni tahlil qilib borish.</li> <li>3. Tahlillar asosida yil yakunida Arxiv sohasidagi davlat xizmatlari ko'rsatish sifatini yaxshilash.</li> </ol>	2023-yil dekabr 2024-yil har chorakda 2024-yil dekabr	A.Turapov, A.Ziyatdinov, J.Ummatov, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari
23.	Agentlik tizimidagi davlat arxivlarida saqlanayotgan elektron arxiv hujjatlari va axborot tizimlarining xavfsizligi ta'minlash va zaxiralashni yo'lga qo'yish, raqamlashtirish ishlari sur'atini yana-da jadallashtirish	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Davlat arxivlari faoliyatiga joriy etilgan axborot tizimlari va resurslari, dasturiy ta'minotlar va ma'lumotlar bazalarini xatlovdan o'tkazish va ro'yxatini tuzish.</li> <li>2. "Elektron hukumat" tizimining Ma'lumotlarni qayta ishlash markaziga joylashtirish uchun tegishli hujjatlarni tasdiqlash.</li> <li>3. Talab etilgan hajmlarda Ma'lumotlarni qayta ishlash markazidan server uskunalarini ishga tushirish.</li> <li>4. Server uskunalarini foydalanishni kengaytirib borish.</li> </ol>	2023-yil IV chorak,  2024-yil davomida	A.Turapov, A.Ziyatdinov, J.Ummatov, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari
<b>80-maqсад:</b> <i>Norma ijodkorligi faoliyatining islohotlar bilan uyg'unligini ta'minlash va davlat huquqiy siyosatining institutsional asoslarini rivojlantirish</i>				
24.	Arxiv ishi va ish yuritish faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish va sohani yanada takomillashtirish.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. O'zbekiston Respublikasi "Arxiv ishi to'g'risida"gi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi Qonun loyihasini ishlab chiqish.</li> <li>2. Qonun loyihasini Adliya vazirligi orqali Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</li> </ol>	2024-yil fevral-iyun 2024-yil III chorak	Sh.Sadikov, L.Mirzayev, Sh.Raximov
25.	Arxiv ishi va ish yuritish sohasida qonuniylikni ta'minlash hamda mazkur yo'nalishda ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha qonunchilikdagi bo'shliqlarni bartaraf qilish.	1. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga "O'zarxiv" agentligi mansabdor shaxslari tomonidan ma'muriy bayonnoma tuzish va ma'muriy qaror qabul qilish vakolatini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha qonun loyihasini ishlab chiqish va Hukumatga kiritish.	2024-yil oktabr-dekabr oylarida	Sh.Sadikov, L.Mirzayev, Sh.Raximov
26.	Arxiv hujjatlarini xavfsizligini ta'minlash, Davlat va jamiyat ishtirokchilarini arxiv hujjatlariga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirish.	2. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi va Jinoyat kodekslariga arxiv hujjatlarini noqonuniy yo'q qilganlik javobgarlikni yanada kuchaytirishni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha qonun loyihasini ishlab chiqish va Hukumatga kiritish.	2024-yil oktabr-dekabr oylarida	Sh.Sadikov, L.Mirzayev, Sh.Raximov
27.	Hukumatning "Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar hujjatlarini tartibga keltirishga kompetentligi yuzasidan	1. "Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar hujjatlarini tartibga keltirishga kompetentligi yuzasidan mutaxassislarni attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha davlat xizmati ko'rsatishning ma'muriy reglamentini	2023-yil noyabr oyida	Sh.Sadikov, L.Mirzayev, Sh.Raximov

T/r	Amaliy chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	mutaxassislarni attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha davlat xizmati ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	tasdiqlash to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasini ishlab chiqish. 2. Mazkur qaror loyihasini belgilangan tartibda Adliya vazirligiga kiritish.		
<b>82-maqсад:</b> <i>Xalq bilan muloqotni yanada kengaytirish orqali aholi muammolarini aniqlash va hal etish tizimining samaradorligini oshirish</i>				
28.	Arxiv ishi sohasida fuqarolarni eng ko'p qiynab kelayotgan masalalarni tahlil qilish va hududlarda aholi bilan yuzma-yuz uchrashuvlar, sayyor qabullarni tashkil etish.	1. Murojaatlarni qog'oz shaklida ro'yxatga olish amaliyotini bekor qilish. 2. Murojaatlarni elektron shaklda, shu jumladan tegishli mobil ilova orqali murojaat qilish imkoniyatini yaratish. 3. Hududlarda "Sayyor qabul" yo'nalishini yanada takomillashtirish va aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni amalga oshirish 4. Agentlik va hududiy boshqarmalar, O'zbekiston milliy arxivlari mansabdor shaxslarining qabullarida masofadan videoaloqa vositasida ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish.	2024-yil II chorak  Har oyda  2024-yil II chorak	Sh.Sadikov, Sh.Tursunbayev, A.Turapov, A.Anarkulova, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari
29.	Jismoniy va yuridik shaxslar hamda ularning vakillari bilan bevosita muloqotni tashkil etish maqsadida Agentlik va hududiy boshqarmalar rahbarlari hamda O'zbekiston milliy arxivlari direktorlarining "Onlayn muloqot" loyihasini tashkil etish.	1. "O'zarxiv" agentligining rasmiy veb-saytida "Onlayn chat" tizimini takomillashtirish. 2. Veb-saytda maxsus sahifa ochish, muloqot ishtirokchilarini ro'yxatga olish shaklini ishlab chiqish. 3. Tizimda muloqot qilish va axborot almashishni yo'lga qo'yish.	2023-yil dekabr oyida, 2024-yil I chorakda	Sh.Tursunbayev, A.Turapov, A.Anarkulova, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari
<b>83-maqсад:</b> <i>Erkin fuqarolik jamiyatini va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, O'zbekistonni fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha xabga aylantirish</i>				
30.	Davlat organlari faoliyatining shaffofligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.	1. Arxiv ishi sohasiga oid ochiq ma'lumotlar, soha islohotlari, arxiv hujjatlaridan foydalanishning keng jamoatchilikka to'g'ridan-to'g'ri yetkazish imkoniyatlarini kengaytirish (matbuot anjumanlari, brifing, press tur va boshqa OAVda chiqishlar). 2. Ommaviy axborot vositalarida arxiv ishi va ish yuritish sohasini keng targ'ib qilish.	Har oyda	A.Aliyev, B.Yunusov, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari
<b>4.2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimidagi islohotlar</b>				

T/r	Amaliy chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
<b>89-maqсад:</b> <i>Korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish</i>				
31.	Aholi va arxiv xodimlari o'rtasida arxiv ishi sohasida korrupsiyaga nisbatan mutlaqo murosasizlik madaniyatini shakllantirish, korrupsiyadan xoli jamiyat yo'lida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni keng ommaga yetkazish borasida samarali targ'ibot ishlarini tashkil qilish.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Respublika miqyosida arxiv muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish haftaliklarini tashkil etish.</li> <li>2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha barcha arxiv muassasalarida xodimlar ishtirokida korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarini tashkil etish.</li> <li>3. Barcha arxiv muassasalarida Aksilkorrupsiya infografika, buklet va boshqa pannolarni o'rnatish.</li> </ol>	2024-yil I chorakda	Sh.Raximov, Sh.Tursunbayev, A.Turapov, L.Mirzayev, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari
32.	Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Davlat xaridlarini to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish orqali amalga oshirishda mablag'larni talon-toroj qilish holatlari, tovar va xizmatlarning narxi bozor qiymatidan oshib ketishining oldini olish bo'yicha jamoatchilik nazoratini to'laqonli joriy qilish.</li> <li>2. Tizimda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash tamoyilini keng qo'llash.</li> <li>3. Normativ-huquqiy hujjatlarning 100 foiz "korrupsiyadan xoli qonunchilik" tamoyili asosida ishlab chiqilishini ta'minlash</li> <li>3. Agentlik Hay'ati majlislarida korrupsiyaviy holatlarni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning ijrosi yuzasidan hududiy rahbarlarning axborotini eshitib borish.</li> </ol>	2024-yil I chorakda  Doimiy ravishda  Har chorakda	Sh.Raximov, L.Mirzayev, F.Suyunov, S.Yunusxodjayeva, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari
<b>V. "XAVFSIZ VA TINCHLIKSEVAR DAVLAT" TAMOYILIGA ASOSLANGAN SIYOSATNI IZCHIL DAVOM ETTIRISH</b>				
<b>5.1. Ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish bo'yicha islohotlar</b>				
<b>90-maqсад:</b> <i>Yangi O'zbekiston tashqi siyosatini xalq va davlatning manfaatlaridan kelib chiqqan holda izchil amalga oshirish</i>				
33.	Hamkor mamlakatlar bilan va nufuzli xalqaro tashkilotlar doirasida mintaqaviy va global masalalar bo'yicha muvozanatli va doimiy muloqotlar o'rnatish hamda taalluqli arxiv hujjatlari nusxalarini almashish amaliyotini kengaytirish.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Arxiv ishi sohasida xorijiy davlatlar arxiv xizmatlari bilan mintaqaviy va global masalalar bo'yicha hamkorlik o'rnatish.</li> <li>2. MDH mamlakatlari muzeylari, arxivlari, axborot resurs markazlari bilan hamkorlikda ularda saqlanayotgan O'zbekistonga tegishli hamda O'zbekiston arxivlarida saqlanayotgan ularga tegishli bo'lgan hujjatlar, qo'lyozmalar, tarixiy asarlar, kinofoto hujjatlari nusxalarini o'zaro hamkorlik asosida almashishni tizimli yo'lga qo'yish.</li> </ol>	2024-yil davomida	A.Aliyev, S.Yunusxodjayeva, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari

T/r	Amaliy chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
<b>91-maqсад.</b> Markaziy Osiyo mintaqasida amaliy hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish				
34.	Markaziy Osiyo mintaqasida turli ustuvor yo'nalishlar qatorida arxiv sohasini yanada rivojlantirish borasidagi yaqin hamkorlikni kuchaytirish.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Markaziy Osiyo davlatlari arxivlari bilan hamkorlikni kengaytirish.</li> <li>2. Qozog'iston, Tojikiston respublikalari arxiv ishi sohasida hamkorlikni kengaytirish.</li> <li>3. Arxiv ishi sohasida mintaqaviy tadbirlarni amalga oshirish rejalarini ishlab chiqish.</li> </ol>	2024-yil II va III chorakda	A.Aliyev, S.Yunusxodjayeva, O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari
<b>5.2. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish bo'yicha islohotlar</b>				
<b>98-maqсад:</b> Favqulodda vaziyatlar va global iqlim o'zgarishi bilan bog'liq aholi hayotiga xavf soluvchi ofatlarning oldini olish				
35.	Davlat arxivlarida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, fuqaro muhofazasi va yong'in xavfsizligini ta'minlash.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Favqulodda vaziyat ro'y berish xavfi yoki favqulodda vaziyat ro'y berganligi haqida xabar berishning avtomatlashtirilgan tizimini rivojlantirish hamda undan samarali foydalanishni tashkil etish to'g'risida" 2023-yil 11-avgustdagi 361-son qarori ijrosi yuzasidan belgilangan vazifalarni bajarish.</li> <li>2. O'zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi boshlig'ining 2023-yil 6-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, fuqaro muhofazasi va yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha 2022-yilda bajarilgan ishlar yakuni va 2023-yildagi asosiy vazifalar to'g'risida"gi 1-son buyrug'i ijrosini ta'minlash.</li> <li>3. Binolarni kuz-qish mavsumiga xavfsiz tayyorlash choralari ko'rish.</li> </ol>	<p>2023-yil dekabr oyida, 2024-yil har chorakda</p> <p>2023-yil oktabr, 2024-yil sentabr-noyabr</p>	Sh.Sadikov, A.Fayzullayev, F.Suyunov, H.Salimov, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari
<b>100-maqсад:</b> Jamiyatda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirish				
36.	Millatlararo munosabatlar sohasida Milliy madaniy markazlar bilan "Xalqlar do'stligi arxiv hujjatlarida" mavzusida hamkorlikda foto va hujjatlar ko'rgazmalari loyihasini ishlab chiqish.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Milliy madaniy markazlar bilan do'stlik aloqalari bo'yicha hamkorlik memorandumlarini tuzish.</li> <li>2. Loyiha takliflarini belgilangan tartibda Tashqi ishlar vazirligiga taqdim etib borish.</li> <li>3. "Xalqlar do'stligi arxiv hujjatlarida" mavzusida hamkorlikda foto va hujjatlar ko'rgazmalarini tashkil etish.</li> </ol>	2024-yil sentabr	A.Aliyev, S.Yunusxodjayeva, Sh.Tursunbayev, O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari